https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

**Muratjanova Lobar Muratjan qizi**
Guliston davlat universiteti
Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti
60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit
(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
yo‘nalishi, 4-bosqich talabasi
Guliston Yoshlar texnoparki
Innovatsion loyihalarni jalb etish bo‘limi boshlig‘i
ORCID: **0009-0000-3300-0646**
muratjanovalobar@gmail.com
+998940350926

# KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKOTLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbollari, xorijiy modellar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, qiyosiy tahlil natijalari berilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir muammolar ochib berilib va bu muammolarni yechishga doir xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, bank, kambag‘allik, ish o‘rinlari, bandlik, korxona,tashkilot, ishsiz, YaIM, iqtisodiyot, innovatsiya.

# СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Муратжанова Лобар Муратжановна**
Гулистанский государственный университет

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Факультет цифровой экономики и инноваций

Направление подготовки:

**60410100 – Бухгалтерский учет и аудит**

**(по отраслям и сферам)**

Студентка 4-го курса

Начальник отдела по привлечению инновационных проектов

**Гулистанский молодежный технопарк**

ORCID: **0009-0000-3300-0646**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены перспективы развития малого бизнеса и частного предпринимательства в нашей стране, направления снижения бедности на основе развития предпринимательства по зарубежным моделям, а также проанализированы научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых. Выявлены проблемы, связанные с развитием малого бизнеса и частного предпринимательства, сделаны выводы и разработаны предложения по решению этих проблем.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, банковское дело, бедность, рабочие места, занятость, предприятие, организация, безработные, ВВП, экономика, инновации.

## REDUCING POVERTY THROUGH DEVELOPMENT O SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

**Muratjanova Lobar Muratjan qizi**

Gulistan State University

Faculty of Digital Economy and Innovations

Study Program: **60410100 – Accounting and Auditing**

**(by Sectors and Industries)**

4th-year Student

Head of the Department for Attracting Innovative Projects

**Gulistan Youth Technopark**

ORCID: **0009-0000-3300-0646**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

**Abstract.** This article is devoted to consideration of the prospects for the development of small business and private entrepreneurship in our country, the directions for reducing poverty based on the development of entrepreneurship through foreign models. Moreover, the article provides a comparative analysis of the scientific and theoretical views of foreign and local scholars. The problems related to the development of small business and private entrepreneurship have been revealed, and conclusions and proposals for solving these problems have been developed.

**Key words:** small business, entrepreneurship, banking, poverty, jobs, employment, enterprise, organization, unemployed, GDP, economy, innovation.

**Kirish.**

Dunyo bo‘yicha kambag‘allik – yirik muammolardan biri bo‘lib, uning sabab va oqibatlari birgina davlatning yechimi bilan cheklanmaydi. Kambag‘allik va uning oqibatlaridan aziyat chekadigan aholi qatlamlarining turmush darajasini oshirish va hayotini barqarorlashtirish, zaruriy shart-sharoitlar bilan ta’minlash borasidagi sa’iy-harakatlar dunyo hamjamiyati diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Jahon tajribasida keng qo‘llaniladigan kambag‘al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash kabi quyidagi 3 vositadan foydalanilmoqda:

Birinchi vosita: kambag‘al aholining doimiy daromad manbaini yaratish; Ikkinchi vosita: inson kapitali sifatini oshirish;

Uchinchi vosita: kambag‘al oilalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy va nomoddiy yordam ko‘rsatish.

Ammo ushbu 3 vositaning o‘ziga xos jihatlari, ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. “Kambag‘al aholining doimiy daromad manbaini yaratish” vositasi qolgan ikki vositaga nisbatan bir muncha optimal yechim. Sababi bu vosita davlat byudjetiga katta yuk bo‘lmaydi. Qolaversa bu vosita o‘z natijasini qisqa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

vaqtda beradi va aholini iqtisodiy faolligini oshishiga hamda ulardagi boqimandalik kayfiyatini pasayishiga sabab bo‘ladi. Ammo kambag‘al aholining doimiy daromad manbaini yaratish vositasida ham ayrim noqulay jihatlari mavjud. Masalan, mazkur yo‘nalishni tez suratlarda rivojlanishi uchun soliq imtiyozlari berish zarur, bu byudjetga tushumni keskin kamayishi olib kelishi mumkin.

Shuningdek, sohani rivojlantirish uchun avvalo aholini tadbirkorlik borasidagi ko‘nikmalari va iqtisodiy faolliklarni oshirish bilan bog‘liq va bu katta to‘siq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari taklif etilayotgan xizmatlar va tovarlar uchun bozor, ya’ni talab zarur, buning uchun esa iste’molchilarda to‘lov quvvati shakllanishi kerak. Bu esa bir muncha vaqt talab etuvchi jarayonlar demakdir.

Jahon mamlakatlari tajribasining ko‘rsatishicha, kambag‘allikni qisqartirishda aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni nihoyatda katta. Chunki, aynan ushbu soha yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat ko‘rsatadi. Yirik korxonalar uchun ayrim zaruriy va butlovchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda, yangi tovar va xizmatlar turlarini oshirishda, tovarlar ishalab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda, raqobatbardosh va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirishdagi roli oshib bormoqda. Birgina AQSh da so‘nggi o‘n yilliklarda amalga oshirilgan innovatsiyalarning 55% aynan kichik biznes sohasida yaratildi(11).

**Adabiyotlar sharhi.**

Smit (1977) tomonidan xalqlarning boyligi mohiyati va sabablarini o‘rganish, Xizrich va Piters (1991) tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish omillari, tadbirkorlik fazilatlarini baholash usullari atroflicha o‘rganilgan va kerakli taklif va tavsiyalar keltirilgan

Iqtisodchi olim L.Gurov (2020) fikriga ko‘ra, kichik biznes iqtisodiy o‘sish sur’atlarini belgilaydi, moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini samarali taqsimlanishiga yordam beradi, ish o‘rinlarini vujudga keltiradi, yangi ish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

joylarini tashkil etishda yirik korxonalarga qaraganda ancha kam xarajat talab qiladi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning foyda solig‘idan ozod etilganligi, ularga kredit va moliyaviy yordamlarning imtiyozli tarzda amalga oshirilayotganligi, bunda ilmiy-texnikaviy potensialdan foydalanish orqali erishiladi deb keltiradi.

Uzakov (2021) kambag‘al va ishsiz fuqarolarni doimiy daromad manbai bilan ta’minlash va mehnat faolligini oshirish maqsadida ularni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha tizimni to‘liq joriy etish, o‘qishga jalb qilingan fuqarolar qamrovini kengaytirish kambag‘allikni qisqartirishdagi birinchi qadamdir deb ta’kidlaydi.

Xushvaqov (2022) agar kambag‘al qatlamning ishlab chiqarish faoliyatida qatnashish imkoniyatlari kengaytirilsa, bu ularning ishchilar yoki tadbirkorlar sifatida iqtisodiy o‘sish jarayonlaridagi ishtirokini ham ta’minlaydi. Buning uchun avvalo, zarur bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi muammosini hal qilish joiz.

Ernazarova (2021) tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi kambag‘alligini qisqartirish, ularning daromadini oshirish kabi masalalar yetarlicha tadqiq etilmaganligi sababli mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi deb keltirgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**


Ilmiy tadqiqot davomida maqolada analitik tahlil, qiyosiy tahlil, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotimizda, qiyosiy tahlil, analitik tahlil yo‘nalishlari orqali muammoni chuqurroq o‘rganishga xarakat qilingan. Muammoning yechimiga olib boruvchi asosiy yo‘nalishlar belgilangan. Tadqiqot obyekti sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati misol qilib olingan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

O‘zbekistonda ham kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishini ta’minlash, uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi, ishlab chiqarish va aholi bandligini ta’minlashdagi ulushini oshirish kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1-rasm ma’lumotlari asosida aytishimiz mumkinki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi yildan-yilga kamayob bormoqda ayniqsa Navoiy viloyatida bu ko‘rsat eng past darajani tashkil qilmoqda. Tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratilganiga qaramay soha rivojlanishi sekin bormoqda. Shuning uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.




**1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi (%da)**[1]

Kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va aholi bandligini ta’minlashda quyidagi ustunliklarga ega ekanligini ta’kidlash lozim:

– mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo‘llarini topish orqali barqaror va muttasil iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi;

[1] siat.stat.uz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

– yer, ish kuchi va sarmoya kabi resurslardan foydalanib, ularni tovarlar va xizmatlarga aylantirgan holda YaIM va jon boshiga daromadlarni ko‘paytirishi;

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ish o‘rinlarini yaratishi;

– kichik boshlang‘ich sarmoya bilan biznesni tashkil etishi, investisiyalarni tez o‘zlashtirishi va yuqori samaradorlik, ko‘pchilikni tadbirkorlik safiga qo‘shilishga ruhlantirish, biznesning yanada rivojlanishi va aholi bandligiga ko‘maklashishi;

– mamlakat iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishiga hissa qo‘shadi, chekka hududlarda korxonalar tashkil qilishi, cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, foyda olishi, ushbu hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita investisiya kiritishi va ushbu mintaqaning yanada rivojlanishiga olib kelishi;

– arzon narxlarda asosiy iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish korxonalarni tashkil etishi, ularning turlarini kengaytirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifatini yaxshilash hisobiga aholining turmush darajasini oshirishi;

– import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlarni keng miqyosda eksport qilish, mamlakatga valyuta kirib kelishiga hissa qo‘shishi orqali mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasida bo‘lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya’ni, 4-5 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu 4-5 mln. aholining bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmaydi, ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lgani bilan, oila daromadining kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og‘ir kasal bo‘lganda, uni davolatishga sarflanadi (2024).

Kambag‘allikni qisqartirishda inson kapitali sifatini oshirish natijasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish vositasi ham uzoq yillar davomida katta samara berishini tarix ko‘p bor isbotlagan. Ayniqsa buni hozirgi dunyo manzarasidan ham ko‘rish mumkin. Rivojlangan davlatlarning deyarli barchasi bu natijaga inson kapitali sifatini oshirish orqali erishgan. Boisi bugungi kunda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

dunyodagi yetakchi davlatlar bilim berish, ko‘nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanishni boshqalarga qaraganda yaxshiroq o‘zlashtirgan. Bu esa samarali ishlovchi inson kapitalini vujudga keltirib, rivojlanmagan davlatlar kabi mehnat resursini emas balki mehnat mahsulini eksport qilishga erishishmoqda (2024).

Lekin bu vositaning ham ma’lum salbiy tomonlari mavjud. Masalan bu vosita bir necha yillardan so‘ng o‘z natijasini bera boshlaydi va shu yillar davomida inson kapitali sifatini oshirish uchun juda katta mablag‘ talab etiladi. Bu davrda esa joriy davrdagi kambag‘allar e’tibordan chetda qolishi mumkin. Shuningdek hukumat tomonidan ta’limni rivojlantirish uchun qancha islohotlar o‘tkazilmasin agar aholi ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmasa kutilgan natijaga erishish qiyin.

Tadqiqotlar kambag‘allik mezonini aniqlash uchun avvalo, “iste’mol savatchasi”ning huquqiy asoslarini belgilab olish talab etilishini ko‘rsatmoqda. Ko‘mak pullari va pensiya miqdorini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan «iste’mol savatchasi» va «yashash minimumi»ni belgilash va joriy etish, rivojlangan taraqqiyot sharoitida har bir davlat ichki siyosatining asosida yotuvchi ushbu indekslarning mamlakatimizga xos ko‘rsatkichlari va me’yorlariga aniqlik kiritish hayotiy zaruratga aylandi.

Ma’lumki, aholi turmush darajasini aniqlashda “iste’mol savatchasi” tushunchasidan, ya’ni muayyan iste’mol darajasini ta’minlovchi tovarlar va xizmatlar majmuidan foydalaniladi. Xalqaro amaliyotda aholi yashash minimumini hisoblashning statistik, sosiologik, resurs, normativ usullari bor.

Yashash minimumi eng kichik miqdori tarkibi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, AQShda “iste’mol savatchasi”ga 300 nomdagi, Germaniyada 475 nomdagi, Angliyada 350 nomdagi, Rossiyada 156 nomdagi tovar va xizmatlar kiritilgan. “Iste’mol savatchasi”ni uchta asosiy tarkibiy qism – oziq-ovqat, nooziq-ovqat va xizmatlarga ajratish mumkin. Undagi oziq-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

ovqatlar miqdori ulushi aholining turmush darajasi qay darajada ekanligini belgilaydi.

Malakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilab berildi. Soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizasiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganini ta’kidlash lozim.

Respublikamizda kambag‘allikni kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida, tegishli tashkilot va muassasalar bilan birgalikda tegishli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlash, turmush darajasini yaxshilash, ularning daromadlari va xarid qilish qobiliyatini oshirish maqsadida aholining ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har bir mahalla kesimida o‘rganilib, ularda tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirish choralari ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda rasman ish bilan band bo‘lmagan 1 million 400 mingdan ortiq ayollar va yoshlar mavjud. Xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlik darajasi 13 foiz, yoshlarda esa
15 foizni tashkil etmoqda. Farg‘ona, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko‘rsatkich yuqoriligicha qolmoqda (www.stat.uz). 1-jadvalda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishda Yapon modelini ko‘radigan bo‘lsak, Yapon iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri bu – kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allik darajasini pasaytirishga erishgani hisoblanadi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash nafaqat hukumat darajasidagi asosiy bosh masala sifatida qaraladi, balkim bir nechta maxsus tashkil etilgan tashkilotlar, mahalliy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

hokimiyat organlari, savdo-sanoat palatalari, banklar tomonidan ham amalga oshiriladi.

**1-jadval**

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi (www.stat.uz)**

| Ko‘rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 Q3 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sanoat (mlrd.so‘m) | 61367,8 | 87962,0 | 83344,2 | 103020,8 | 124907,9 | 143892,7 | 119088,5 |
| Qurilish (mlrd.so‘m) | 22469,4 | 37451,7 | 53960,9 | 63866,6 | 77907,1 | 93554,5 | 79990,5 |
| Bandlik (ming kishi) | 10541,5 | 10128,8 | 10318,9 | 9865,7 | 10080,6 | 10131,1 | - |
| Eksport (mln.AQSH.dol) | 2759,3 | 3810,8 | 4714,8 | 3100,9 | 3335,2 | 5712,9 | 5332,4 |
| Import (mln.AQSH.dol) | 7511,9 | 10916,2 | 14972,2 | 10943,3 | 11533,5 | 15213,6 | 13440,6 |
| Savdo (mlrd.so‘m) | 92973,0 | 114896,4 | 138920,7 | 164106,1 | 186759,3 | 229166,7 | 167458,3 |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd.so‘m) | 152010,5 | 191759,2 | 219466,9 | 253238,2 | 304452,1 | 344134,5 | 283340,4 |
| Xizmatlar (mlrd.so‘m) | 69212,7 | 84433,4 | 103106,6 | 114052,7 | 147061,6 | 181245,0 | 155220,8 |
| Yuk tashish (mln.tonna) | 548,8 | 611,7 | 641,0 | 638,9 | 550,1 | 608,2 | 479,8 |
| Yuk aylanmasi (mln.tonna-km) | 10444,4 | 11657,7 | 12152,3 | 12304,6 | 13803,2 | 14843,8 | 11885,0 |
| Yo‘lovchi tashish (mln.yo‘lovchi) | 5037,5 | 5242,6 | 5345,0 | 4904,8 | 5485,2 | 5628,4 | 4156,1 |
| Yo‘lovchi aylanmasi (mln.pass.km) | 111435,0 | 115335,2 | 117412,7 | 107766,7 | 120964,7 | 124433,9 | 92057,2 |

Bugungi kunga kelib Yaponiya banklari tomonidan ajratiladigan jami kreditlarning qariyib 60 foizidan ortig‘i aynan kichik va o‘rta biznes ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes bilan ishlash tizimi to‘liq rag‘batlantirish, ular faoliyatini faoliyatini modernizasiyalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, savdo-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

sotiqni rivojlantirish, iqtisodiy va texnik rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirish yo‘nalishlarida tashkil etilgan (Qayumov S. 2022).

Yaponiyada kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish bo‘yicha tabaqalangan tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) tarkibida kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash Byurosi tashkil etilgan. Yaponiya hukumati bundan tashqari franchayzingni rivojlantirish, kichik biznes uchun davlat mikro qarzlarini berish, ularning eksport salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha qator amaliy choralarni qabul qilib kelmoqda. Bundan tashqari ularga nisbatan imtiyozli soliqqa tortish amaliyoti ham joriy qilingan (Sugawara, Hideyuki. 2010).

Iqtisodiyotda kambag‘alchilik darajasini kamaytirishning eng optimal yo‘li kambag‘al statusi berilgan fuqarolarning biznes ko‘nikmalarini oshirish orqali ularni kichik biznesga jalb etish hisoblanadi. Aynan kambag‘al qatlamning biznesga jalb qilish orqali davlat qator muammolarni yechishga muvaffaq bo‘lishi mumkin. Jumladan, iqtisodiyotdagi bandlik muammosini oson va arzon yechishga, kelgusida jinoyatchilik va uni bartaraf etishga sarflanishi talab etiladigan byudjet mablag‘larini tejalishiga, kambag‘allar sonini boshqarish va kamaytirish orqali byudjetdan amalga oshirilishi talab etiladigan ijtimoiy xarajatlarni optimallashtirishga, sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga erishadi.

Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning kichik biznesni tartibga solishdagi tajribasi ham diqqatga sazovordir, u yerda “Kichik biznes – iqtisodiy o‘sishni harakatlantiruvchi kuchdir” degan shior davlat darajasiga ko‘tarilib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va salohiyatini tashkil qiladi. Korxonalarning umumiy sonida kichik va o‘rta biznesning ulushi 99,9 foiz, ish bilan bandlikning 87,9 foizi, eksportning 37,5 foizini tashkil qilib, iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, bandlikning 38 foizi mikrokorxonalarga, 25 foizi kichik korxona, 25 foizi o‘rta korxona va 12 foizi yirik va global korxonalarga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

to‘g‘ri keladi(Ministry of Korea, 2021). Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda o‘ndan ortiq tashkilot mashg‘ul bo‘lib, ularning aksariyati hukumatga tegishli. Shu jumladan, Koreya Respublikasi Kichik va o‘rta biznes va startaplar vazirligi, Koreya tijorat va sanoat palatasi, Koreya savdo korporasiyasi, Koreya kichik biznes xalqaro savdo korporasiyasi, Koreya ish beruvchilar federasiyasi va boshqalar.

Koreya Respublikasi kichik va o‘rta biznes va startaplar vazirligi biznesning o‘sishi, korxonalarning barcha bosqichida – startapdan kichik – o‘rta va global korxonaga qadar rivojlanishi bilan bog‘liq turli siyosatni amalga oshiradi. Texnologiya va bilimga asoslangan startaplarni rag‘batlantirish butun biznes muhitiga innovasiya va faollikni olib keladi.

Shu maqsadda yangi g‘oyalarni tatbiq etish orqali ularni yangi kompaniyalarga aylantirish, sarmoyalarni jalb qilish, biznesga investisiya kiritish va qayta investisiyalashni yengillashtiradigan moliyalashtirish yo‘llarini hamda korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradigan mexanizmlarni ishlab chiqadi. Boshqa idoralar esa bozorni o‘rganish, tadbirkorlarni tegishli zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash, jahon bozoriga chiqishga yordam berish, soliqlar, bojxona tariflarini kamaytirish va imtiyozli kreditlar olish masalalari bo‘yicha faoliyat yuritadi. Rivojlangan mamlakatlarda aksariyat kichik biznes umumiy ovqatlanish, savdo, transport xizmatlari, turistik, ekskursion, maishiy xizmat va boshqa xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritadi.

Albatta aynan kambag‘allikni bartaraf etilishida kichik biznes katta mavqeyini egallagan va qisqa muddatlarda aynan kichik biznesni rivojlantirish orqali ular darajasini kamaytirishga erishgan davlatlar xususan Yaponiya va Janubiy Koreyaning tajribasini tadqiq etish hamda ijobiy tajribalarini O‘zbekistonda qo‘llash yuzasidan amaliy taklif tavsiflarni berish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz aholisining kambag‘allikdan chiqib ketishi uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

sari harakati bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xorijiy tajriba tahlillarning ko‘rsatishicha, iqtisodiyotni isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta’minlashda oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati va roli muhim o‘ringa ega.

**Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib bir nechta taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan: tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘chma seminarlar tashkil etish. Ikkinchidan: tadbirkorlik faoliyati, bank, pul-kredit, soliq va moliyaviy savodxonlik,marketing, menejment, innovatsiyalar hamda kreativ fikrlashga doir nazariy bilimlarni berish. Uchinchidan: milliy mentalitemizdan kelib chiqqan holda Yaponiya modeli asosida tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish. To‘rtinchidan: kambag‘allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirish va bu borada qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlik darajasini keskin oshirish. Beshinchidan: davlat tomonidan soliq imtiyozlarini yanda kengroq joriy etish va raqobat muhitini yaratish Oltinchidan: banklar tomonidan loyihalar asosida maqsadli kreditlash tizimini kengaytirish.

**Adabiyotlar / Литература / Reference:**

1. Смит А. (1977) Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ось, – 480 с
2. Хизрич Р., Питерс М. (1991) Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, – 223 с.
3. Мировые тенденции развития предпринимательской деятельности в экономике зарубежных стран. https://articlekz.com/article/15307
4. Кахрамон Пазилдинович Узаков Камбағалликни қисқартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш масалалари // Academic research in educational sciences. 2021. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kamba-allikni-is-artirishda-a-oli-bandligini-taminlash-masalalari
5. Хушвақов А.Б. Ўзбекистонда камбағалликни камайтиришда кичик бизнес ва тадбиркорликнинг ЎРНИ // Инновацион технологиялар . 2022. №3 (47). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kamba-allikni-kamaytirishda-kichik-biznes-va- tadbirkorlikning-rni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

6. Эрназарова Н.Н. Оилавий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali.
7. № 3, may-iyun, 2021 yil
8. К XIX Апрельской международной научной конференции по проблемам развития экономики и общества. Как увеличить человеческий капитал и его вклад в экономическое и социальное развитие. 10 –13 апреля 2018 г. Москва
9. Қаюмов С. (2022). Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларини замонавий технологиялар орқали ривожлантириш пировардида камбағаллик даражасини камайтириш масалалари: япония тажрибаси. Архив научных исследований, 4(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2700
10. Sugawara, Hideyuki. (2010). Japanese business and poverty reduction. Society and Business
11. Review. 5. 198-216. 10.1108/17465681011055604.
12. Ministry of Small and Medium Enterprises and Startups of the Republic of Korea. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/summitdecl.shtml https://siat.stat.uz/reports-filed/1840/meta-data
13. https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kamba-allikni-kamaytirishda-kichik- biznes-va-tadbirkorlikning-rni/pdf 2020
14. www.stat.uz O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2